XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94), (76) 221-74-81)

2022 - yil 21 - yanvar VI-42-16-8-0-K/22 Surxondaryo viloyati hokimligi

Mintaqaviy yo‘llarni rivojlantirish uchun yoqilg‘i birligidan undiriladigan maxsus yig‘imni belgilash, uni to‘lash va hisobini yuritish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 3-maydagi KQ-224-IV-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xo‘jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5890-son Farmoniga muvofiq xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi **qaror qiladi:**

1. Mintaqaviy yo‘llarni rivojlantirish uchun yoqilg‘i birligidan undiriladigan maxsus yig‘im miqdorini shakllantirish bo‘yicha ishchi guruh 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ishchi guruh:

maxsus yig‘im miqdorini shakllantirishda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi hududiy mahsulot, aholining turli qatlamlarining daromadlari, hududda ro‘yxatdan o‘tgan avtotransport vositalarining soni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab- quvvatlashni kengaytirish tadbirlari inobatga olinishini;

maxsus yig‘im miqdorini belgilash to‘g‘risidagi taklifni har yili 1-martga qadar viloyat hokimligiga kelishish uchun kiritilishini;

maxsus yig‘imlar miqdorini belgilangan tartibda jamoatchilik fikrini o‘rganish uchun muhokamaga joylashtirilishini ta’minlasin.

3. Mintaqaviy yo‘llarni rivojlantirish uchun yoqilg‘i birligidan undiriladigan maxsus yig‘imni belgilash, uni to‘lash va hisobini yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat hokimligi (T.Bobolov) hududiy jamg‘armaga maxsus yig‘im bo‘yicha kelib tushgan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni:

har chorak yakunlari bo‘yicha keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar va har yil yakuni bo‘yicha keyingi yilning 25-yanvariga qadar viloyat hokimligining rasmiy veb-sahifasida (surxondaryo.uz) va ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, mahalliy

televideniyelar orqali jamoatchilik e’tiboriga yetkazilishini;

har yili 25-yanvarga qadar o‘tgan yilda hududiy jamg‘armaga maxsus yig‘im bo‘yicha kelib tushgan mablag‘lar hamda ularning ishlatilishi to‘g‘risidagi hisobotni xalq deputatlari viloyat Kengashiga kiritilishini ta'minlasin.

5. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Davlatov), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), “Surxondaryo” viloyati teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **Choriyev A. R.**

Халқ депутатлари Сурхондарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 21 январдаги
VI-42-16-8-0-K/22-сон қарорига
1-илова

Mintaqaviy yo‘llarni rivojlantirish uchun yoqilg‘i birligidan undiriladigan maxsus yig‘im miqdorini shakllantirish bo‘yicha ishchi guruh

TARKIBI

T/r	**F.I.Sh.**	**Ish joyi va lavozimi**
1.	Mamanov Fayzulla Bo‘riyevich	Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, *Ishchi guruh rahbari*
2.	Xidirov Alisher Bo‘riyevich	Viloyat hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
3.	Xursanov Baxtiyor Nurqobilovich	Viloyat Moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i
4.	Eshkeldiyev Erkin Omanovich	O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i
5.	Ismoilov Abduvohid Salomovich	Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i
6.	Eshmatov Sirojiddin Tog‘aymurodovich	Viloyat davlat Soliq boshqarmasi boshlig‘i
7.	Mengliyev Asliddin Baxodirovich	Savdo-sanoat palatasi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i

Халқ депутатлари Сурхондарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 21 январдаги
VI-42-16-8-0-K/22-сон қарорига
2-илова

Mintaqaviy yo‘llarni rivojlantirish uchun yoqilg‘i birligidan undiriladigan maxsus yig‘imni belgilash, uni to‘lash va hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1- bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom mintaqaviy yo‘llarni rivojlantirish uchun yoqilg‘i birligidan undiriladigan maxsus yig‘imni (keyingi o‘rinlarda – maxsus yig‘im deb yuritiladi) belgilash, uni to‘lash va hisobini yuritish tartibini belgilaydi.

2. Maxsus yig‘im avtomobil benzini, dizel yoqilg‘isi, suyultirilgan va siqilgan gazni yakuniy iste’molchilarga realizasiya qilishdan undiriladi. Bunda maxsus yig‘im miqdori avtomobil benzini, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gazning 1 litri uchun hamda siqilgan gazning 1 metr kubi uchun 25 so‘mdan ortiq bo‘lmasligi lozim.

3. Maxsus yig‘imdan olingan tushum tegishincha viloyat hokimligi Moliya bosh boshqarmasi huzuridagi avtomobil yo‘llarini rivojlantirish maqsadli jamg‘armasiga (keyingi o‘rinda – hududiy jamg‘arma deb yuritiladi) yo‘naltiriladi.

2-bob. Maxsus yig‘im miqdorini shakllantirish va uni jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish tartibi

4. Maxsus yig‘im miqdori tashkil etilgan ishchi guruhi tomonidan shakllantiriladi. Maxsus yig‘im miqdorini shakllantirishda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi hududiy mahsulot, aholining turli qatlamlarining daromadi, hududda ro‘yxatdan o‘tgan avtomototransport vositalarining soni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish tadbirlari inobatga olinadi.

5. Ishchi guruh maxsus yig‘im miqdorini belgilash to‘g‘risidagi taklifni har yili 1-martga qadar belgilangan tartibda jamoatchilik fikrini o‘rganish uchun muhokamaga joylashtiradi va viloyat, shahar va tumanlar hokimlariga kelishish uchun kiritadi

3-bob. Maxsus yig‘im miqdorini belgilash tartibi

6. Tuman (shahar) hokimliklari jamoatchilikdan tushgan takliflar asosida maxsus yig‘im miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda har yili 15-mayga qadar tegishincha xalq deputatlari viloyat Kengashiga ko‘rib chiqish uchun kiritadi.

7. Xalq deputatlari viloyat Kengashi maxsus yig‘im miqdorini ma’qullash, o‘zgartirish yoki maxsus yig‘im kiritishni rad etishi mumkin.

8. Maxsus yig‘im miqdori xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan ma’qullanganidan so‘ng viloyat hokimligining tegishli qarorlariga asosan belgilanadi.

Qarorda belgilangan maxsus yig‘im miqdorining kuchga kirish muddati aniq ko‘rsatilishi

lozim hamda ushbu muddat qaror qabul qilingan kundan boshlab o‘n kundan kam bo‘lishi mumkin emas.

9. Viloyat hokimligi:

maxsus yig‘im miqdorini belgilash to‘g‘risidagi qaror qabul qilingandan so‘ng 1 (bir) ish kunida ushbu qarorlarning nusxalarini tegishincha viloyat hokimligi Moliya bosh boshqarmasiga, yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha davlat soliq inspeksiyalariga hamda viloyat davlat soliq boshqarmasiga;

o‘zlarining rasmiy veb saytlari, ijtimoiy tarmoq kanallari, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, mahalliy televideniyelar orqali jamoatchilik e’tiboriga yetkazilishini ta’minlaydi.

10. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi qaror nusxasini olgan kundan so‘ng 1 (bir) ish kunida uni tumanlar va shahardagi davlat soliq inspeksiyalari orqali o‘z hududidagi:

avtomobil benzini, dizel yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qiluvchi subyektlarga, shu jumladan, avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalariga;

gazni gaz to‘ldirish stansiyalariga va gaz to‘ldirish punktlari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi subyektlarga yetkazadi.

Bunda, qaror nusxalari yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo Davlat soliq inspeksiyasi, tuman (shahar)lar davlat soliq inspeksiyalari tomonidan soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali ham yetkazilishi mumkin.

11. Maxsus yig‘im miqdorini belgilash to‘g‘risidagi qaror keyingi yil uchun maxsus yig‘im miqdorini belgilash va (yoki) bekor qilish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingunga qadar amal qiladi.

4-bob. Maxsus yig‘imni hisoblash va hududiy jamg‘armalarga to‘lash tartibi

12. Maxsus yig‘im miqdori avtomobil benzini, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gazning 1 litri va siqilgan gazning 1 metr kubi uchun belgilanadi.

13. Belgilangan maxsus yig‘im yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilingan avtomobil benzini, dizel yoqilg‘isi hajmiga, shuningdek, gaz to‘ldirish stansiyalari hamda gaz to‘ldirish punktlari orqali realizatsiya qilingan suyultirilgan va siqilgan gaz hajmiga nisbatan qo‘laniladi hamda undiriladi.

Yakuniy iste’molchilar deganda, o‘z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi.

14. Avtomobil benzini, dizel yoqilg‘isi, suyultirilgan va siqilgan gazni avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali sotishda maxsus yig‘im 1 litrdan kelib chiqib, boshqa hollarda esa 1 tonnadan kelib chiqib, siqilgan gaz uchun 1 metr kubdan hisoblab chiqariladi.

15. Avtomobil benzini, dizel yoqilg‘isi, suyultirilgan va siqilgan gazning 1 tonnasi uchun maxsus yig‘im miqdori o‘rnatilgan tartibda 1 litr uchun belgilanadigan miqdorni tuzatish (avtomobil benzini uchun - 1 328, dizel yoqilg‘isi uchun - 1 215 va suyultirilgan gaz uchun - 1

897) koeffitsiyentlarga ko‘paytmasi sifatida aniqlanadi.

16. Yuridik shaxslarga avtomobil benzini, dizel yoqilg‘isi, suyultirilgan va siqilgan gaz birja savdolari orqali qayta sotilganda, maxsus yig‘im undirilmaydi. Bunda, ushbu yuridik shaxslarning o‘z ehtiyojlari uchun foydalanadigan avtomobil benzini, dizel yoqilg‘isi, suyultirilgan va siqilgan gaz hajmi qismida maxsus yig‘im belgilangan tartibda to‘lanadi.

17. Avtomobil benzini, dizel yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qiluvchi “O‘zbekneftgaz” AJ neft bazalari, yoqilg‘i quyish shoxobchalari va stansiyalari, shuningdek, gazni gaz to‘ldirish stansiyalari va gaz to‘ldirish punktlari maxsus yig‘imni to‘lovchilar (keyingi o‘rinlarda – maxsus yig‘im to‘lovchilar) deb e’tirof etiladi.

18. Maxsus yig‘im avtomobil benzini, dizel yoqilg‘isi, suyultirilgan va siqilgan gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishda ularning narxi, shu jumladan, chakana narxi ustiga qo‘shiladi.

19. Maxsus yig‘im to‘lovchilar hisoblangan maxsus yig‘imlar summasini har oyda keyingi oyning 10-sanasidan kechiktirmay tegishli hududiy jamg‘armaga to‘laydi.

5-bob. Maxsus yig‘imlarning hisobini yuritish va undan tushgan mablag‘lardan foydalanishning ochiqligini ta’minlash tartibi

20. Maxsus yig‘im hisobotini taqdim etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 292-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

21. Viloyat hokimligi:

a) hududiy jamg‘armaga maxsus yig‘im bo‘yicha kelib tushgan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har chorak yakunlari bo‘yicha keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar va har yil yakuni bo‘yicha keyingi yilning 25-yanvariga qadar o‘zlarining rasmiy veb-sahifalari va ijtimoiy tarmoq kanallari, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, mahalliy televideniyelar orqali jamoatchilik e’tiboriga yetkazilishini ta’minlaydi;

b) har yili 25-yanvarga qadar o‘tgan yilda hududiy jamg‘armaga maxsus yig‘im bo‘yicha kelib tushgan mablag‘lar hamda ularning ishlatilishi to‘g‘risidagi hisobotni xalq deputatlari viloyat Kengashiga kiritadi.

22. Maxsus yig‘im hisobidan hududiy jamg‘armada jamlangan mablag‘lar belgilangan tartibda tuman (shahar)lar aholi punktlari va ko‘chalarida, xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarida loyihalash, yo‘l qurilish, ta’mirlash va ekspluatatsiya ishlarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

23. Maxsus yig‘imning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi va hududiy jamg‘armalarga belgilangan muddatlarda to‘lanishi ustidan nazorat davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

24. Hududiy jamg‘armalar mablag‘larining belgilangan maqsadlarda va samarali

foydalanilishi ustidan nazorat Davlat moliyaviy nazorati departamenti viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

25. Ushbu Nizomning talablarini buzganlikda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgardirlar.